

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING BAG'RIKENGLIGI XUSUSIDA

*Usanov Shuxrat Musurmonovich
TTA Termiz filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"
kafedrasi assistenti
shuhratusanov0@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy tadqiqotda ikkinchi jahon urushi yillarida sovet hukumatining aholini ko'chirish siyosati, O'zbek xalqining bag'rikenglik jihatlari, tolerantlik tushunchasi, ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda millatlararo munosabatlar tushunchasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данном научном исследовании представлены информация о политике переселения населения советским правительством в годы Второй мировой войны, аспекты толерантности у узбекского народа, понятие толерантности и межэтнические отношения в Узбекистане в годы Второй мировой войны.

Annotation: This scientific research provides information about the Soviet government's population relocation policy during World War II, the aspects of tolerance in the Uzbek people, the concept of tolerance, and interethnic relations in Uzbekistan during the years of World War II.

Kalit so'zlarlar: mehmondo'stlik, bag'rikenglik, Shoahmad Shomakhmudov, Hamid Samadov, tolerantlik, milliy guruhlari deportatsiya qilinishi, milliy va diniy qadriyatlar, millat erkinligi va barqarorligi, ijtimoiy guruh.

Ключевые слова: Гостеприимство, толерантность, Шоахмад Шомахмудов, Хамид Самадов, толерантность, депортация национальных групп, национальные и религиозные ценности, национальная свобода и стабильность, социальная группа.

Keywords: Hospitality, tolerance, Shoakhmad Shomakhmudov, Khamid Samadov, tolerance, deportation of national groups, national and religious values, national freedom and stability, social group.

KIRISH Insoniyat tarixida eng ko'p qirg'inbarotlar olib kelgan ikkinchi jahon urushi natijasida yer yuzida juda ko'plab aholi vafot etdi. 1941-yilning 22-iyun kuni tongida fashistlar Germaniyasi Sovet Ittifoqiga hujum qildi. Mamlakat va partiya rahbari I.V.Stalin 1941-yil 16-avgustda 270-sonli buyruqni e'lon qildi. Unga binoan urushda asir tushganlar o'ta ketgan dizetirlar (harbiy xizmatni tashlab ketgan qochoqlar) deb e'lon qilindi, ularning oila a'zolari esa "qasamyodni buzganlar va Vatanni sotganlarning oilasi sifatida qamash"ga mahkum etildi.

Ikkinchı jahon urushining birinchi kunlaridan boshlab to oxirigacha o‘zbekistonlik jangchilar unda juda faol qatnashdilar. Tarix ularning mardligi, qat’iyati va fidokorligi haqidagi xotiralarini o‘tmish, bugungi va kelajak avlodlar uchun mangu saqlanib qolgan.

Urushning og‘ir yillarida o‘zbek xalqining asosiy ma’naviy axloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo‘ldi. O‘zbek xalqi Sharq ma’naviyatining eng yaxshi an’analalariga amal qilib, urushning ayanchli yillarida ittifoqning dushman vaqtincha bosib olgan hududlaridagi aholiga do’stona bag‘rikenglik qilib, o‘z yurtidan ajralgan quvg‘inlarga g‘amxo‘rlik va mehmondo‘stlik bilan ko‘nglini ko‘tardi. Qardosh xalqlarga iqtisodiyotni tiklashda va madaniy qurilishni yo‘lga qo‘yishda yordam berdi. O‘zbekiston Respublikasi aholisi urush yillarida nihoyatda nochor yashashiga qaramasdan shunday yordam qo‘lini cho‘zdi. Urush odatdagi hayot tarzini tubdan o‘zgartirib yubordi. Urushning dastlabki kunlaridanoq butun mamlakatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari keskin kamayib ketdi. Ko‘chirib keltirilgan aholi oqimining ortishi munosabati bilan uy-joy muammosi haddan tashqari keskin tus oldi. Elektr quvvati, yoqilg‘i bilan ta’minlashdagi uzilishlar transport va kommunal xizmat ko‘rsatish muassasalari ishiga salbiy ta’sir qildi. Urush har bir xonadonga, har bir oilaga yopirilib kirdi, odamlarni og‘ir sinovlarga mahrumliklar va azob-uqubatlarga mubtalo qildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mustqillik yillarida jamiyat kishilarini bag‘rikenglik, tolerantlik ruhida tarbiyalash hamda milliy mafkura va mustaqillik g‘oyalariga asoslangan holda shakllantirish va boyitib borishda bugungi kunda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, R.H. Murtazayeva tomonidan amalga oshirilgan ko‘plab izlanishlar, da O‘zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar hamda bag‘rikenglik tamoyillari, sovet hukmronligi yillarida hamda istiqlol davrida mamlakatda ko‘p millatlilikning qaror topishi, tarixiy jihatdan shakllanishi va ildizlari, rivojlanish bosqichlari, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash hamda unga doir chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, o‘zbek xalqi orasida boshqa xalq va millat vakillarining taraqqiyot jarayonlari, tarixiy manbalar, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar yordamida o‘rganilgan[1].

Bundan tashqari bir qator olimlar ham ushbu soha bo‘yicha qator izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, Rashidov Oybek (*O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik o‘quv qo‘llanma* — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.- 200b.), Normatov K., Ishoqov F., Nurillin R. (*Миллатлараро муносабатлар маданияти ва байналминал дунёқараиши*. — Тошкент: Ўзбекистон. 1993. 135 б.), Mirazamov K. (*Миллий-маданий манбаатлар ва миллий маданиятларнинг ривожланиши. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиши учун ёзилган диссертация*. — Тошкент: 1995. 143 б.), Muminov A. (*Миллатлараро муносабатлардаги*

муаммоларни ўрганишининг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан. 1996. 176 б) (Миллий сиёсат ва маданий соҳадаги ўзгаришилар. – Тошкент: Академия. 2010. 123 б.).

Ushbu olimlarning izlanishlari natijasida mamlakatimizda shakllangan millatlararo munosabatlar, bag‘rikenglik qarashlari haqida batafsil malumotga ega bo‘lmoqdamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatning dushman vaqtincha bosib olgan hududlarini va front yaqinidagi tumanlarni tashlab chiqqan dastlabki o‘n minglab kishilar respublikaga 1941-yilning yozidayoq kela boshlagan edi. O‘zbekiston urush yillari Rossiyaning bosib olingan rayonlaridan – *Ukrainadan, Belorusiyadan* hammasi bo‘lib *bir milliondan* ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi.

O‘zbek xalqi bu yerga kelgan fuqarolarni mehmondo‘stlik bilan qarshi oldi. Aholi ularga turar-joy berib, o‘zi siqilib yashadi, ko‘chib kelganlarni to‘ydirish uchun oxirgi bo‘lak nonini ham bo‘lib berdi. Ular uchun poyafzal, kiyim-bosh to‘pladi. Ko‘chirib keltirganlarga yordam berish maqsadida Farg‘ona viloyatidagi “Birinchi may” qishloq xo‘jalik arteli mehnatkashlarining tashabbusi bilan shaharlarga don, sabzavotlar, kartoshka, go‘sht maxsulotlari ortilgan karvonlar yetib kelgan. Ko‘chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o‘ziga 1941-yil 24- noyabrdan 31-dekabrgacha 37,6 mingdan ortiq kishi, 1941-1942-yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan a’minlandi[7., 155 b].

Shuni ham alohida takidlab o‘tish joizki, ikkinchi jahon urushi davrida aholi ko‘chirilishidan tashqari ko‘plab zavod va fabriklar ham ko‘chirilib kelingan. Ushbu ko‘chirib kelingan zavod va fabrikalarda o‘zbek millatiga mansub kishilar ko‘chirib kelingan xalqlar bilan o‘zaro hamkorlikda, hamjihatlikda mehnat qilib kelgan.

Ikkinci jahon urushi yillarida O‘zbekistonga 90 ta zavod asosiy kadrlar tarkibi bilan ko‘chirib keltirildi. O‘zbekistonga ko‘chirilgan salkam 1 mln. kishining 70%ni Rossiyanadan kelgan edi. Mazkur zavodlar negizida Chkalov nomidagi aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, “Sredazkabel” ishlab chiqarish birlashmasi, “Chirchiqselmash”, “O‘zbekselmash”, “Tashtekstilmash”, “Pod‘yomnik”, abraziv buyumlar zavodi kabi yirik sanoat ob’ektlari qad ko‘tardi. Ular uzoq vaqt davomida respublikaning yirik sanoat korxonalari sifatida sanalib turgan. Zavodlar bilan birga kelgan xodimlarning bir qismi urushdan keyin O‘zbekistonda doimiy yashash uchun qoldilar[6., 178 b].

Ko‘chirib keltirilgan kishilar va boshqa zavod fabrika anjomlarini qabul qilishni tartibli yo‘sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil

oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil qilingan[7, 176 b].

1941-yil dekabrida evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar kecha-kunduz ishlab turdi. Misol uchun, birgina 1941-yil 25-noyabrdan 1942-yil oktabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola qabul qilib olindi.

Markaziy hududlardan yetib kelgan bolalar mamlakatimizda aholi tomonidan onalarcha mehribonlik bilan qarshi olindi. Ular Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo‘qon va Namangan va boshqa hududlarda tashkil etilgan oshxonalarda bepul ovqat, keyim kechak va boshqa zaruriy narsalarni olishardi. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan. Mamlakatimizda yashovchi fuqarolar tomonidan bag‘rikenglik qilib ikkita va uchdan ortiq bolalarni ham o‘z tarbiyalariga oldilar. Masalan, toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov (1890-1970) va uning turmush o‘rtog‘i Bahri aya Akramova (1903-1987)lar 14 nafar bolani, kattaqo‘rg‘onlik Hamid Samadov oilasi 12 nafar, buxorolik Muazzam Jo‘raeva va Ashurxo‘jaevalar o‘z bag‘rilariga 8 nafar turli millatga mansub bolani asrab olganligi manbalarda qayd etib o‘tilgan [11].

1943-yil oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa 870 nafar bola o‘zbek oilalari tomonidan tarbiya qilish uchun olingan edi. Ayniqsa, Shomahmudovlar oilasining vatanparvarlik faoliyati butun mamlakatda mashhur bo‘ldi.

Shu yillarda ham O‘zbekistonga boshqa xalqlarning vakillari (polyaklar, qrim tatarlari, bolqorlar, mesxeti turklari va boshqalar) ni deportatsiya qilish jarayoni davom etdi. Masalan, mesxeti turklari 1944-yilda Gruziyaning janubiy va janubi- g‘arbiy tumanlaridan ko‘chirildi. Majburan ko‘chirilgan 115 mingdan ortiq kishining aksariyati “Maxsus ko‘chirilganlar” huquqi bilan aynan O‘zbekistonga kelib joylashtirildi.

1944-yil dekabr oyida Toshkent shahar ijroqo‘mi huzurida maxsus ko‘chirish bo‘limi tashkil etildi, 1946-yil fevralida uning nomi "Ko‘chirish bo‘limi" deb o‘zgartirildi. Mazkur bo‘limning malumotlariga ko‘ra 1944-yilning noyabrida 566 turk xo‘jaligi (2260 kishi) Sirdaryo tumaniga, 463 xo‘jalik (1787 kishi) Mirzacho‘l tumaniga joylashtirildi[6.,179 b].

Turmush sharoitlari og‘irligi bois ushbu ko‘chirilganlarning bir qismi vafot etdi. Shunga qaramay, 1946-yilda O‘zbekistonda maxsus ko‘chirib keltirilgan turli millat vakillaridan 179992 kishi yashar edi[6.,179 b].

O‘zbekistonda asta-sekin bolalar uylari, maktab-internatlari, bolalar bog‘chalari tarmog‘i kengaytirildi, ular birinchi navbatda ko‘chirilib keltirilgan bolalarni va frontga ketganlarning bolalarini qabul qildilar.

1945-yilda O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 268 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchilar soni 31 300 nafar bolani tashkil etdi. Holbuki, urush arafasida respublikada faqat 106 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 12 ming bola tarbiyalanardi.

O'zbekistonliklar frontchilarning oilalariga ommaviy g'amxo'rlik qildilar. Bu g'amxo'rlik davlat byurokratik mashinasining illatlarini ko'p jihatdan yopib ketardi. 1941-yilda harbiy xizmatchilar va urush nogironlari oilalari uchun jamoatchilik yordamida 40 000 xonodon ta'mirlandi, 280 000 pud g'alla, 1250 bosh chorva mollari, 22 000 kamplekt kiyim-bosh etkazib berildi. 1942 yilda haddan tashqari muhtoj bo'lganlarga 5920 ta kvartira berildi, 81 000 ta kvartira ta'mirlandi. Harbiy xizmatchilarning oilalariga qariyb 330 tonna g'alla, sabzavot va boshqa oziq-ovqat maxsulotlari berildi, 313 bosh chorva mollari tarqatildi [7, 178 b].

O'zbekistonda hukm surayotgan bag'rikenglik muhiti, turli millat vakillarining o'zaro tinch-totuv yashash tajribasi boshqa davlatlar uchun namuna bo'lishi shubhasiz. Ayniqsa, yuqorida keltirgan manbalar kabi ikkinchi jahon urushi davrida bospanasiz qolgan minglab turli millat vakillarini o'z bag'riga olgan o'zbek xalqi bag'rikengligi va mehmondo'stligini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

300 mingdan ortiq yetim bolani o'zbek oilalari o'z farzandidek qabul qildi. Urushdan oldin yurtidan majburan ko'chirilgan bir necha elat va millat vakillariga xalqimiz bag'rini ochdi, mehr ko'rsatdi, eng og'ir damda yordam qo'lini cho'zib, bir burda nonini baham ko'rdi. Koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim tatarlari, chechenlar bu bag'rikeng zaminda ikkinchi vatanini topdi. Shu kunga qadar ular o'zbek xalqiga minnatdorlik bildirib, Vatanga muhabbat tuyg'ularini izhor etmoqda.[12,].

Taqqoslash uchun urushdan avvalgi yillarda O'zbekiston qishloq aholisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning tarkibi birmuncha sezilarli darajada edi. Masalan 1939-yilda O'zbekistonning qishloq aholisi tarkibida ruslarning ulushi 4,4%ni, ukrainlar ulushi 0,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1959-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra ruslarning ulushi 3,3%, ukrainlarning ulushi 0,4%ga teng bo'ldi, ya'ni 1939-1959-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq aholisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning, avvalo yevropalik aholining ulushi keskin qisqardi.

XULOSA

Vatanimiz millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik, bag'rikenglikni mustahkamlash va rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Bugungi kunda yurtimizdagи 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyatি faoliyat yuritib keladi. Shu tariqa millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarini saqlashga imkon beradigan o'ziga xos model yaratilgan.

Qadimdan mamlakatimiz hududlarida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom

ma'nodagi bag'rikenglik xalqimizga xos fazilat. Yurtimizda tinch-totuv yashashning muhim manbai o'zbek xalqining o'ziga xos mentalitetidir. Zero, asrlar davomida shakllangan mehr-oqibat va saxovat, mehmondo'stlik va rahm-shafqat xalqimizning yuksak ma'naviy fazilatlaridir. Bu fazilatlar eng og'ir tarixiy davrlarda jumladan, ikkinchi jahon urushi yillaridagi sinovdan o'tdi va xalqimiz irodasini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgani bois, asrlar davomida boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan noyob ko'prik bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandidek ahil va inoq yashamoqda. 16 ta diniy konfessiyaga mansub diniy tashkilot o'z faoliyatini erkin amalgaga oshiradi. Ular umumiy uyimiz – O'zbekiston ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. O'zbekistonning xalqaro maydonagi obro'-e'tibori yuksalishi, tinchlik va totuvlik yanada keng quloch yozishi yo'lida turli millatga mansub yurtdoshlarimiz xizmati beqiyosdir. Mustaqillik mamlakatimizda millatlararo munosabatlar sohasida yangi davrni boshlab berdi. O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda amaliy ifodasini to'liq topmoqda. Bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari jamiyatimiz hayotining barcha bo'g'inlariga, bu yurtda istiqomat qilayotgan har bir millat vakili hayotiga chuqur kirib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. –Тошкент:Ўзбекистон,2019. – 400 б.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент:Ўзбекистон, 2020. – 455 б.
3. Муртазаева Р.Х. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане.-Ташкент: Узбекистан, 2010.- 151с.
4. Муртазаева Р. Миграционные процессы в Узбекистане в конце XX – в начале XXI веков: исторические события и новые тенденции. Учебное пособие для магистров. – Германия: Lambert, 2015.
1. 5.Муртазаева Р.Х. Маҳалла – миллатлараро тутувлик ва бағрикенглик маскани. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2016.
5. **R.H.Murtazayeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik, O'zbekiston tarixi mutaxassisligi magistrlari uchun darslik. T., 2019.**
6. Rashidov Oybek O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik o'quv qo'llanma — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022.- 200 b.

7. Normatov K., Ishoqov F., Nurillin R. Миллатлараро муносабатлар маданияти ва байналминал дунёқараш. – Тошкент: Ўзбекистон. 1993. 135 б.
8. Mirazamov K. Миллий-маданий манфаатлар ва миллий маданиятларнинг ривожланиши. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 1995. 143 б.
9. Muminov A. Миллатлараро муносабатлардаги муаммоларни ўрганишнинг долзарб масалалари. – Тошкент: Фан. 1996. 176 б.

Internet manbalari

10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Shomahmudovlar_oilasi
11. <https://yuz.uz/uz/news/qalb-saxovati-va-bagrikenglik-fazilati-totuvlik-va-milliy-taraqqiyotimiz-bosh-omili>